

BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISH

Tojiyeva Gulzoda Raximboyevna

Qo'shko'pir tumani 10-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Matchanova Xosiyat Matnazarovna

Qo'shko'pir tumani 7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur mavzuda bola shaxsining shakllanish jarayoni, unga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ijtimoiy-psixologik muhitning roli yoritiladi. Shaxs rivojlanishi murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, unda oila, maktab va jamiyatning o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Maqolada tarbiya, genetik va ijtimoiy omillarning shaxs shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shaxs, bola, tarbiya, ijtimoiy muhit, psixologik rivojlanish, xarakter, temperament.

KIRISH

Bola shaxsining shakllanishi inson hayotining eng muhim va murakkab jarayonlaridan biridir. Shaxs tug'ma xususiyatlar va ijtimoiy tajriba asosida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu jarayonda bola atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishadi, bilim va tajriba orttiradi hamda o'zining individual xususiyatlarini shakllantiradi.

Shaxs shakllanishida birinchi navbatda oila muhim rol o'ynaydi. Ota-ona munosabati, oiladagi muhit, mehr va e'tibor bolaning dastlabki psixologik asoslarini belgilaydi. Bola oilada axloqiy qadriyatlar, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy xulq-atvorni o'zlashtiradi.

Maktab esa shaxs rivojlanishining ikkinchi muhim bosqichi hisoblanadi. Bu yerda bola bilim oladi, ijtimoiylashadi va jamoada yashash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi bilan munosabatlar, sinf jamoasi va ta'lim jarayoni bolaning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy muhit ham shaxs shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Do'stlar, atrofdagi odamlar, media va jamiyatdagi qadriyatlar bolaning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sir qiladi. Ijobiy muhit shaxsning sog'lom rivojlanishini ta'minlasa, salbiy muhit uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. SHunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: «Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi». Bu o'rnida ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir.

Yangi o'tkazilgan niholning to'g'ri yohud egri o'sishi bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liqdir. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'yilmasa, u noto'g'ri rivojlanadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir tabiiy o'xshashlik mavjud.

Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o`qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamayturib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har

tomonlarga foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish muhim omillaridir.

Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan To'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid taro'ibotning, roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy-ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. o'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi. Ayrim maktablarida ota-onalarni ma'lum guruhlariga bo'lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalarni alohida, noto'liq oilalarni, ko'p bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yo'llari belgilanmoqda. Maktabni oila bilan bo'lovchi vosita - bu o'quvchilardir. O'quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi, ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimini oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma'ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o'zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o'qituvchining tutgan o'mi, ularga ta'sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil

qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobokalonimizning farzandlari va avlodining tarbiyasi haqida "Temur tuzuklari" asarida farzandlarida uch xislat mujassam bo'lishini istardi. Eng ayvalo, insonparvariik, so'ng mushohadalik va nihoyat, oqibatlilik — bosliqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo'lishi mumkin. Mushohadali, bosliq odamgina jang-u jadalda xatoga yo'l qo'ymaslikka, ulkan saltanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bo'lsa-yu, insonparvar bo'lmasa, jismonan baquvvat bo'lsa-yu, mushohadalik bo'lmasa, dono bo'lsa-yu, bosliqlik bo'lmasa, unday odam komil inson bo'la olmaydi, unday odam boshqalarni ham, o'zini ham halok etadi. Kimki raqibi bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. «Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish kuchidan o'n karra foydaliroqdir», deb ta'kidlaydi ulug' Sohibqiron.

Bola shaxsining shakllanishida ichki psixologik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Bularga temperament, qiziqishlar, qobiliyat va individual xususiyatlar kiradi. Masalan, temperament bolaning hissiy reaksiyalari tezligi va barqarorligini belgilaydi. Xolerik yoki sangvinik bolalar faol va tez harakat qilsa, melanxolik bolalar ko'proq sokin va o'ychan bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar tarbiya jarayonida hisobga olinishi lozim. Shuningdek, shaxs shakllanishida motivatsiya ham katta rol o'ynaydi. Bola nima uchun o'qishi, nima uchun harakat qilishi kerakligini tushunsa, unda ichki rag'bat paydo bo'ladi. Bu esa uning maqsadga intiluvchanligini kuchaytiradi va irodaviy sifatlarini rivojlantiradi.

Bolada o'z-o'zini anglash jarayoni ham shaxs shakllanishining muhim bosqichidir. U asta-sekin "men kimman?", "men nima qila olaman?" degan savollarga javob izlay boshlaydi. Bu jarayon uning o'ziga baho berish darajasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, shaxs shakllanishida tarbiya uslublari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qattiq nazoratga asoslangan tarbiya bolada qo'rquv va tortinchoqlikni kuchaytirishi mumkin, haddan tashqari erkinlik esa intizomsizlikka olib keladi. Shuning uchun muvozanatli, mehrga asoslangan tarbiya eng samarali hisoblanadi.

Bola shaxsining shakllanishi nafaqat tashqi muhitga, balki uning ichki psixologik xususiyatlariga ham bog'liq murakkab jarayondir. Shu sababli har bir

bola bilan individual yondashuv asosida ishlash muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsining shakllanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tarbiya, ijobiy muhit va qo'llab-quvvatlash orqali har tomonlama rivojlangan, mustaqil va barkamol shaxsni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent Ma'naviyat, 2008-yil
2. Karimov I.A «Barkamol avlod orzusi». T.«O'zbekiston», 1998-yil
3. Karimov I.A «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent «O'zbekiston», 1993-yil
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosida tushuncha va tamoyillar. Toshkent O'zbekiston. 2001-yil
5. ZIYO.NET